

ABDULLA UMAROV

CHOLG‘U IJROCHILIGI

Toshkent - 2006

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZILIGI
METODIKA VA AXBOROT RESPUBLIKA MARKAZI

ABDULLA UMAROV

CHOLG‘U IJROCHILIGI

**(Madaniyat va san‘at oliy o‘quv yurtlari uchun
o‘quv qo‘llanma)**

Toshkent 2006

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
sanʼat fakultetining Ilmiy kengashi tomonidan nashrga
tavsiya etilgan.**

Masʼul muharir: N.Qosimov, dotsent, filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: H.Nurmatov, professor, pedagogika fanlari doktori

S.Jumayev, dotsent.

Oʻquv qoʻllanma milliy cholgʻulardan biri boʻlgan tanbur ijrochiligi masalalariga bagʻishlangan boʻlib, unda cholgʻuda oʻrganishning uslubiy jihatlari bilan bir qatorda ushbu cholgʻu uchun moʻljallangan musiqa asarlari ham jamlangan. Mazkur oʻquv qoʻllanma oliy taʼlim muassasalarining talabalari va oʻqituvchilari uchun moʻljallangan.

KIRISH

Milliy musiqiy merosimiz, jumladan milliy cholgʻu ijrochiligimiz tarixi ham eramizdan bir necha asr oldingi davrlarga borib taqaladi. Xalqimiz va millatimizning barcha rivojlanish davrlarida qoʻshiq bilan bir qatorda tanbur, dutor, doyra, ud, gʻijjak, qonun, rubob kabi milliy cholgʻu sozlarimiz qalb qoʻriyu-koʻngil davosi sifatida bebaho maʼnaviy ozuqa boʻlib xizmat qilgan.


Milliy cholgʻular ichida tanbur alohida oʻrin tutadikim, tanbur sozi oʻzining yurak qitiqlari, nolayu-qochirimlari, rang-barang milliy ijro bezaklari va nihoyat, oʻrganish va ijro etish jihatidan murakkab boʻlishiga qaramay xalqimiz orasida naqadar ommaviylashgan va sevimli sozga aylangan.

Tanbur nafaqat oʻzbek xalqi orasida, balki qardosh tojik va uygʻur xalqlarida ham sevib ijro etiladi. Chunki tanbur sozida mumtoz klassik maqom kuylari, oʻzbek xalq kuylari qatori, bastakor va oʻzbek kompozitorlari tomonidan yozilgan kuylarni ham mohirona ijro etish mumkin.

Bu cholgʻudagi ajoyib ijrochiligi bilan xalqimizga manzur boʻlgan va qalblardan chuqur joy olgan tanburchilarimizdan Sultonali Hakimov, Maqsudxoʻja Yusupov, Yoqub Davidov, Asatqori Lutfullayev, Maʼrufxoʻja Toshpoʻlatov, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artistlar – Rizqi Rajabiy, Joʻrabek Saidaliyev, Abdumutal Abdullayev, Shobarot Tanburiy, Roʻzimatxon Tanburiy, Otavali Nuriddinov, Tojikistonda xizmat koʻrsatgan artistlar – Shonazar Sohibov, Fazliddin Shaxobov, Boboqul Fayzullayev va shular kabi juda koʻp sozandalarning nomlarini faxr bilan tilga olamiz.

Mazkur oʻquv qoʻllanma musiqiy oily oʻquv yurtlarining anʼanaviy ijrochilik boʻlimlaridagi tanbur sinflarida tahsil olayotgan magistratura bosqichi talabalari uchun moʻljallangan. Oʻquv qoʻllanmada tanbur haqida qisqacha maʼlumot, nota savodxonligiga oid, badiiy ijro mahoratini egallashga oid, tanbur ijrochiligida qoʻllaniladigan zarblar va milliy bezaklar haqida nazariy va uslubiy maʼlumotlar berilgan. Oʻquv qoʻllanmaga oʻrganish va ijro etish uchun maqomlardan, oʻzbek xalq kuylaridan, bastakorlar va oʻzbek kompozitorlari yaratgan asarlar kiritildi. Oʻquv qoʻllanmaga kiritilgan asarlar kayfiyati va ijro uslublari jihatidan turlicha boʻlib, oddiydan-murakkabga tomoyili asosida joylashtirildi.



TANBURNI TUZILISHI ТАНБУРНИ ТУЗИЛИШИ



TANBURDA IJRO ETISH HOLATLARI ТАНБУРДА ИЖРО ЭТИШ ²ОЛАТЛАРИ



Tanburni o‘tirgan holda ushlash holati
Танбурни  тирган  лда ушлаш  лати



Tanburni turgan, satoni o‘tirgan holda ushlash holati
Танбурни турган, сатони  тирган  лда ушлаш  лати



Noxun o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘iga taqiladi
Нохун  нг  лнинг  рсаткич бармо ига таќилади

Tanburda gammalar ijro etishda milliy musiqa asarlaridan foydalanish


«Tanovar» usulida re major:



«Dilxiroj» usulida re major:



«Ufor» usulida re major:



«Kurd» usulida re major:



«Aliqambar» usulida re major:



«Chapandoz» usulida re major:



«Sulton jam-jama» usulida do major:



«Nozli» usulida do major:






2. Forshlag (zarb oldi) – qisqa yoki chizilgan forshlag. Quyidagi namuna qisqa forshlagga misol:



3. Naxshlag (forshlagning aksi). Qisqa yoki chizilgan naxshlagga misol:



4. Uzun yoki chizilmagan naxshlag. Quyidagi namuna uzun yoki chizilmagan naxshlagga misol bo‘ladi.



Naxshlag chap qo‘l barmoqlarini pardaga qo‘yish yoki olish yordamida ijro etiladi. Naxshlag ustidagi + (qo‘shuv) belgisi bu bezakni chalishda o‘ng qo‘l barmoqlari ishtirok etmasligini bildiradi.

BADIIY BO‘LIMDAGI AYRIM ASARLARGA VA IJROGA TAALLUQLI QISQA TAVSIYALAR

Eshvoy kurd II

Toshkent-Farg‘ona vohasiga mansub cholg‘u hamda ashula yo‘llaridan biri. Ushbu kuy R.Rajabiy talqinida radio fonotekasining oltin fondiga yozib olingan. Bu kuyi ustoz sozandalar ansambli ijrosidagi mukammal ijro namunasi O‘zbekiston radiosining musiqiy yozuvlar “Oltin hazina”sida saqlanadi. Bu kuyning ashula yo‘lining Borahim Mirzayev, Mashrab Ermatov va boshqa hofizlar ijrosidagi namunalari radio fonotekasining oltin fondiga yozib olingan. Mazkur namunani R.Rajabiy ijrosidan A.Umarov notaga olgan.

Doyra usuli:



Dilbar

Mashxur sozanda, bastakor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, ustoz G‘ulom Qo‘chqorov “Dilbar” kuyini tanbur uchun maxsus bastalagan. Ushbu kuy yangi va hali hech qayerda ijro etilmagan.

Kuyi tezligi og‘irroq, shoshmasdan ijro etiladi. Kuy re-major tonalligida bo‘lib do diyez pardada keladi. Tanburda do diyez pardasi yo‘q. Shuning uchun do diyez pardasini do bekar pardasidan ikkinchi barmoq bilan ezib, nola va qochirim orqali ijro etiladi.

Misol:



Tanburni boshqa cholg‘u asboblardan o‘ziga xos tomoni shundaki, unda yarim pardalar yo‘q. Shuning uchun tanburda yarim pardalar asosan nola, molish, kashish va qochirimlar yordamida pardani ezish hisobiga hosil qilinadi.

Kuylar ijro qilinganda tanbur zarblariga ko‘proq e‘tibor berib, kuyi qaytarish qismlarda avval yakka zarb, ikkinchi qaytarishda pirrang zarb ijro etilsa kuy go‘zal va jozibali yangraydi.

Doyra usuli:



Karimqulbegi II

Ushbu mumtoz kuyni tanburda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, ustoz sozanda Rizqi Rajabiy, sozanda Abdulla Umarov, dutorda sozandalar, O‘zbekiston xalq artisti Orif Qosimov va Mahmud Yunusov ijrolarida Respublika radio fonotekasiga yozib olingan. Ashula yo‘lini O‘zbekiston xalq artistlari Karim Zokirov, Orif Alimaxsumov va boshqa hofizlar ijro etganlar.


Takt o‘lchamlari murakkab bo‘lgan (2/4, 3/4) talqin usulida ijro etiladi. Asarni ijro etganda cholg‘uchi usulni nihoyatda aniq his qilishi kerak. Bu asarda ham turli-tuman bezakli uslublardan keng foydalaniladi. Yarim parda keladigan joylarda chap qo‘lning ikkinchi barmog‘i bilan ezib ijro etiladi.

Misol:



Karimqulbegi II kuyini tanburda ijro etganda noxun zarblariga alohida e‘tibor berib ijro etilishi kerak. Kuy qaytariladigan bo‘laklarida zarblar ikki xil ijro etiladi. Birinchi qaytarishda oddiy zarb chalinsa, ikkinchi qaytarilishida murakkab pIRRang zarbi qo‘llaniladi.

Doyra usuli:



Sarbozcha

Toshkent-Farg‘ona vohasining mashhur kuylaridan. Ushbu kuyni tanburda O‘zbekistonda xalq artisti T.Alimatov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rizqi Rajabiy, dutorda sozandalar, O‘zbekiston xalq artisti Orif Qosimov va Mahmud Yunusov ijrolarida Respublika radio fonotekasiga yozib olingan. O‘quv qo‘llanmada keltirilgan namunani R.Rajabiy ijrosidan A.Umarov notaga olgan.


Doyra usuli:



Muxammasi Ushshoq

Shashmaqom tarkibidagi Rost maqomining mushkilot qismidan olingan. Ushbu kuy Yu.Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli sozandalari, tanburda sozanda A.Umarov ijrolarida Respublika radio fonotekasiga yozib olingan.

Doyra usuli:



Mashqi Chorgoh


Toshkent-Farg‘ona maqomlarining cholg‘u yo‘llaridan. Ushbu kuy Chorgoh ashula yo‘lidan farqlanadi. Mazkur kuyni tanburda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Rizqi Rajabiy va Jo‘rabek Saidaliyev ijrolarida Respublika radio fonotekasiga yozib olingan.



O‘quv qo‘llanmadan o‘rin olgan namunasini R.Rajabiy ijrosidan A.Umarov notaga olgan.

Armug‘on

Bastakor Saidjon Kalonov qalamiga mansub asar. Mazkur kuy sozandalar ansamllari repertuaridan munosib o‘rin egallagan. Yu.Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli va Tilash Xo‘jambardiyev rahbarligidagi sozandalar ansambli ijrosida Respublika radio fonotekasining oltin fondiga yozib olingan.



O‘quv qo‘llanmadan o‘rin olgan namunani A.Umarov tanburga moslashtirgan.

Ajam taronalari

Toshkent-Farg‘ona vohasiga mansub cholg‘u kuylaridan biri. Ajam bilan birga Navro‘zi Ajam va Ajam taronalari mavjud. Ular Ajam I, Alam II, Ajam III, Ajam IV deb ham yuritiladi. Mazkur kuylar alohida va turkum tarzda sozandalar ansambli hamda yakka cholg‘ularda ommalashgan.

Doyra usuli: 

Rizqi Rajabiy ijrosidan Ajam I, II, III, IV qismlari radio fonotekasiga yozib olingan. O'quv qo'llanmadan o'rin olgan namunalarini R.Rajabiy ijrosidan A.Umarov notaga olgan.

Nasrullo

Toshkent-Farg'ona vohasining mashhur turkum kuylaridan. Nasrullo besh qismdan iborat. U quyidagi tartibda nomlanadi:

Nasrullo I;


Nasrullo II, birinchi taronasi – chapandoz;

Nasrullo III, ikkinchi taronasi – qashqarcha;


Nasrullo IV, uchinchi taronasi;

Nasrullo V, to'rtinchi taronasi – ufor.

Doyra usullari:

Nasrullo I 

Nasrullo II 

Nasrullo V 

Turg'un Alimatov tomonidan Nasrullo I, II va V qismlari gramplastinkaga (M30-35921) yozib olingan. Mazkur kuy namuna ustozlar ijro etgan katta variantning qisqartirilgani bo'lib, ayrim kuy jumalari qaytariqsiz ijro etilgan. T.Alimatov ijrosidan R.Qosimov notaga olgan.

Sarahbori Dugoh

Shashmaqom tarkibidagi Dugoh (IV-jild) maqomining I, II, III, IV, V va VI taronalari. Nasr – ashula bolimi.

Ustoz sozandalar maqom cholg'u kuylari bilan birga ashula yo'llarini ham barcha milliy cholg'ularimizga moslashtirib o'ziga xos ijro bezaklari bilan boyitilgan holda talqin etmoqdalar. Ana shunday ijodiy yondashuvni T.Alimatov faoliyatida ko'rish mumkin. Ijrochilik tajribasidan ma'lumki, ashula yo'llarini cholg'ularga moslashtirish jarayonida ashula jumlasidan oldin ijro etiladigan kuy jumalari ikki yoki uch marotaba qaytarilmasligi uchun qisqartiriladi. Bunda asosan ashula jumalalarining o'zi kuy sifatida ijro etiladi.

КИРИШ

Миллий мусиқий меросимиз, жумладан миллий чолғу ижрочилигимиз тарихи ҳам эрамиздан бир неча аср олдинги даврларга бориб тақалади. Халқимиз ва миллатимизнинг барча ривожланиш даврларида кўшиқ билан бир қаторда танбур, дутор, дойра, уд, ғижжак, конун, рубоб каби миллий чолғу созларимиз қалб кўрию-кўнгил давоси сифатида бебаҳо маънавий озуқа бўлиб хизмат қилган.

Миллий чолғулар ичида танбур алоҳида ёрин тутадиким, танбур сози ўзининг юрак қитиқлари, нолаю-қочиримлари, ранг-баранг миллий ижро безаклари ва ниҳоят, ўрганиш ва ижро этиш жихатидан мураккаб бўлишига қарамай халқимиз орасида нақадар оммавийлашган ва сеvimли созга айланган.

Танбур нафақат ўзбек халқи орасида, балки қардош тожик ва уйғур халқларида ҳам сеvim ижро этилади. Чунки танбур созида мумтоз классик мақом куйлари, ўзбек халқ куйлари қатори, бастакор ва ўзбек композиторлари томонидан ёзилган куйларни ҳам моҳирона ижро этиш мумкин.

Бу чолғудаги ажойиб ижрочилиги билан халқимизга манзур бўлган ва қалблардан чуқур жой олган танбурчиларимиздан Султонали Ҳакимов, Мақсудхўжа Юсупов, Ёқуб Давидов, Асатқори Лутфуллаев, Маъруфхўжа Тошпўлатов, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артистлар – Ризқи Ражабий, Жўрабек Саидалиев, Абдумутал Абдуллаев, Шобарот Танбурий, Рўзиматхон Танбурий, Отавали Нуриддинов, Тожикистонда хизмат кўрсатган артистлар – Шоназар Соҳибов, Фазлиддин Шаҳобов, Бобоқул Файзуллаев ва шулар каби жуда кўп созандаларнинг номларини фахр билан тилга оламиз.

Мазкур ўқув қўлланма мусиқий олий ўқув юртларининг анъанавий ижрочилик бўлимларидаги танбур синфларида таҳсил олаётган магистратура босқичи талабалари учун мўлжалланган. Ўқув қўлланмада танбур ҳақида қисқача маълумот, нота саводхонлигига оид, бадий ижро маҳоратини эгаллашга оид, танбур ижрочилигида қўлланиладиган зарблар ва миллий безаклар ҳақида назарий ва услубий маълумотлар берилган. Ўқув қўлланмага ўрганиш ва ижро этиш учун мақомлардан, ўзбек халқ куйларидан, бастакорлар ва ўзбек композиторлари яратган асарлар киритилди. Ўқув қўлланмага киритилган асарлар кайфияти ва ижро услублари жихатидан турлича бўлиб, оддийдан-мураккабга томойили асосида жойлаштирилди.

Танбурда гаммалар ижро этишда миллий мусиқа асарларидан фойдаланиш


«Тановар» усулида ре мажор:



«Дилхирож» усулида ре мажор:



«Уфор» усулида ре мажор:



«Курд» усулида ре мажор:



«Алиқамбар» усулида ре мажор:



«Чапандоз» усулида ре мажор:



«Султон жам-жама» усулида до мажор:



«Нозли» усулида до мажор:



«Усмония» усулида соль мажор:



«Гардун» усулида соль мажор:



«Ажам. Иккинчи тарона» усулида соль мажор:



Куйларни нотага олишда фойдаланилган миллий безак белгилари

1. Сайқал (мордент) ♪, қўш мордент ♪♪, чизилган мордент ♪♪♪, чизилган қўш мордент ♪♪♪♪.

Мордентнинг биринчиси – асосий товуши ўнг қўл зарби билан ҳосил қилинади, мордентнинг қолган товушлари эса, чап қўл бармоқларини пардага қўйиш ва олиш ёрдамида ижро этилади. Бу товушларни ҳосил қилишда ўнг қўл иштирок этмайди. Мордент устига + (қўшув) белгиси қўйилади. ^ауйидаги намуналар мос тарзда мордент, қўш мордент, чизилган мордент, чизилган қўш мордентга мисол бўлади.





2. Форшлаг (зарб олди) – киска ёки чизилган форшлаг. ^ауйидаги намуна киска форшлагга мисол:



3. Нахшлаг (форшлагнинг акси). ^аиска ёки чизилган нахшлагга мисол:



4. Узун ёки чизилган нахшлаг. ^ауйидаги намуна узун ёки чизилган нахшлагга мисол бўлади.




Нахшлаг чап қўл бармоқларини пардага қўйиш ёки олиш ёрдамида ижро этилади. Нахшлаг устидаги + (қўшув) белгиси бу безакни чалишда ўнг қўл бармоқлари иштирок этмаслигини билдиради.

БАДИЙ БЎЛИМДАГИ АЙРИМ АСАРЛАРГА ВА ИЖРОГА ТААЛЛУЛИ АИСА ТАВСИЯЛАР

Эшвой курд II

Тошкент-Фарғона воҳасига мансуб чолғу ҳамда ашула йўлларида бири. Ушбу куй Р.Ражабий талқинида радио фонотекасининг олтин фондига ёзиб олинган. Бу куйни устоз созандалар ансамбли ижросидаги мукамал ижро намунаси Ўзбекистон радиосининг муסיқий ёзувлар “Олтин ҳазина”сида сақланади. Бу куйнинг ашула йўлининг Бораҳим Мирзаев, Машраб Эрматов ва бошқа ҳофизлар ижросидаги намуналари радио фонотекасининг олтин фондига ёзиб олинган. Мазкур намунани Р.Ражабий ижросидан А.Умаров нотага олган.

Дойра усули:



Дилбар

Машхур созанда, бастакор, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, устоз Ғулом аўчқоров “Дилбар” куйини танбур учун махсус басталаган. Ушбу куй янги ва ҳали ҳеч қаерда ижро этилмаган.

Куйни тезлиги оғирроқ, шошмасдан ижро этилади. Куй ре-мажор тоналлигида бўлиб до диез пардада келади. Танбурда до диез пардаси йўқ. Шунинг учун до диез пардасини до бекар пардасидан иккинчи бармоқ билан эзиб, нола ва қочирим орқали ижро этилади.



Танбурни бошқа чолғу асбобларидан ўзига хос томони шундаки, унда ярим пардалар йўқ. Шунинг учун танбурда ярим пардалар асосан нола, молиш, кашиш ва қочиримлар ёрдамида пардани эзиш ҳисобига ҳосил қилинади.

Куйлар ижро қилинганда танбур зарбларига кўпроқ эътибор бериб, куйни қайтариш қисмларда аввал якка зарб, иккинчи қайтаришда пирранг зарб ижро этилса куй гўзал ва жозибали янграйди.



Каримқулбеги II

Ушбу мумтоз куйни танбурда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, устоз созанда Ризқи Ражабий, созанда Абдулла Умаров, дуторда созандалар, Ўзбекистон халқ артисти Ориф ʼосимов ва Махмуд Юнусов ижроларида Республика радио фонотекасига ёзиб олинган. Ашула йўлини Ўзбекистон халқ артистлари Карим Зокиров, Ориф Алимахсумов ва бошқа хофизлар ижро этганлар.


Такт ўлчамлари мураккаб бўлган (2/4, 3/4) талқин усулида ижро этилади. Асарни ижро этганда чолғучи усулни ниҳоятда аниқ ҳис қилиши керак. Бу асарда ҳам турли-туман безакли услублардан кенг фойдаланилади. Ярим парда келадиган жойларда чап қўлнинг иккинчи бармоғи билан эзиб ижро этилади.

Мисол:



Каримқулбеги II куйини танбурда ижро этганда нохун зарбларига алоҳида эътибор бериб ижро этилиши керак. Куй қайтариладиган бўлакларида зарблар икки хил ижро этилади. Биринчи қайтаришда оддий зарб чалинса, иккинчи қайтарилишида мураккаб пирранг зарби қўлланилади.


Дойра усули:



Сарбозча

Тошкент-Фарғона воҳасининг машҳур куйларидан. Ушбу куйни танбурда Ўзбекистонда халқ артисти Т.Алиматов, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Ризқи Ражабий, дуторда созандалар, Ўзбекистон халқ артисти Ориф ʼосимов ва Махмуд Юнусов ижроларида Республика радио фонотекасига ёзиб олинган. Ўқув қўлланмада келтирилган намунани Р.Ражабий ижросидан А.Умаров нотага олган.

Дойра усули:




Мухаммаси Ушшоқ

Шашмақом таркибидаги Рост мақомининг мушқилот қисмидан олинган. Ушбу куй Ю.Ражабий номидаги мақомчилар ансамбли


созандалари, танбурда созанда А.Умаров ижроларида Республика радио фонотекасига ёзиб олинган.

Дойра усули:



Машқи Чоргоҳ

Тошкент-Фарғона мақомларининг чолғу йўлларида. Ушбу куй Чоргоҳ ашула йўлидан фарқланади. Мазкур куйни танбурда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артистлар Ризқи Ражабий ва Жўрабек Саидалиев ижроларида Республика радио фонотекасига ёзиб олинган.

Дойра усули: 

Ўқув қўлланмадан ўрин олган намунасини Р.Ражабий ижросидан А.Умаров нотага олган.

Армуғон

Бастакор Саиджон Калонов қаламига мансуб асар. Мазкур куй созандалар ансамллари репертуаридан муносиб ўрин эгаллаган. Ю.Ражабий номидаги мақомчилар ансамбли ва Тилаш Хўжамбердиев раҳбарлигидаги созандалар ансамбли ижросида Республика радио фонотекасининг олтин фондида ёзиб олинган

Дойра усули: 

Ўқув қўлланмадан ўрин олган намунасини А.Умаров танбурга мослаштирган.

Ажам тароналари

Тошкент-Фарғона воҳасига мансуб чолғу куйларидан бири. Ажам билан бирга Наврўзи Ажам ва Ажам тароналари мавжуд. Улар Ажам I, Алам II, Ажам III, Ажам IV деб ҳам юритилади. Мазкур куйлар алоҳида ва туркум тарзда созандалар ансамбли ҳамда якка чолғуларда оммалашган.

Дойра усули:



Ризқи Ражабий ижросидан Ажам I, II, III, IV қисмлари радио фонотекасига ёзиб олинган. Ўқув қўлланмадан ўрин олган намуналарини Р.Ражабий ижросидан А.Умаров нотага олган.

Насрулло

Тошкент-Фарғона воҳасининг машҳур туркум куйларидан. Насрулло беш қисмдан иборат. У куйидаги тартибда номланади:

Насрулло I;

Насрулло II, биринчи таронаси – чапандоз;


Насрулло III, иккинчи таронаси – қашқарча;

Насрулло IV, учинчи таронаси;

Насрулло V, тўртинчи таронаси – уфор.

Дойра усуллари:


Насрулло I



Насрулло II



Насрулло V



Турғун Алиматов томонидан Насрулло I, II ва V қисмлари грампластинкага (М30-35921) ёзиб олинган. Мазкур куй намуна устозлар ижро этган катта вариантнинг қисқартирилгани бўлиб, айрим куй жумлалари қайтариқсиз ижро этилган. Т.Алиматов ижросидан Р.^аосимов нотага олган.

Сарахбори Дугоҳ

Шашмақом таркибидаги Дугоҳ (IV-жилд) мақомининг I, II, III, IV, V ва VI тароналари. Наср – ашула болими.

Устоз созандалар мақом чолғу куйлари билан бирга ашула йўлларини ҳам барча миллий чолғуларимизга мослаштириб ўзига хос ижро безаклари билан бойитилган ҳолда талқин этмоқдалар. Ана шундай ижодий ёндашувни Т.Алиматов фаолиятида кўриш мумкин. Ижрочилик тажрибасидан маълумки, ашула йўлларини чолғуларга мослаштириш жараёнида ашула жумласидан олдин ижро этиладиган куй жумлалари икки

Фойдаланилган адабиётлар

- Ю.Ражабий. Ўзбек халқ муסיқаси. I-IV жилдлар. Т., 1955-1959 йй.
А.Умаров. Танбур наволари. Т., “Фан”, 1995.
Р.Турсунов, С.Маннопов. Анъанавий кўшиқ ижрочилиги услубияти. Т., “Ижод дунёси”, 2003.
И.Акбаров. Музика луғати. 1987.
И.Ражабов. Макомлар масаласига доир. Т., 1963.
Б.Рахимджанов. Мелодии дутара. Т., Издательства литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1980.
М.Абдукаримов. Навои танбур. Душанбе. 1990.
М.Тошмухамедов. Ёижжакда анъанавий ижрочиликни ўзлаштириш. Т., 1999.
С.Жумаев. Созлар садоси. Т., 2001.
Б.Раҳимжонов. Дуторчилар ансамбли. Т., Ёафут ёулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2002.
Р.Ўосимов. Анъанавий танбур ижрочилиги. Т., “Чўлпон”, 2002.
Ё.Ўчқоров, А.Умаров. Ансамбль чолғулари. Т., “Музиқа” нашриёти, 2003.
А.Умаров. Танбур тароналари. Т., “Янги ижод”, 2004.

MUNDARIJA

Kirish	3
Tanburda gammalar ijro etishda milliy musiqa asarlaridan foydalanish	6
Kuylarni notaga olishda foydalanilgan milliy bezak belgilari	7
Badiiy bo‘limdagi ayrim asarlarga va ijroga taalluqli qisqa tavsiyalar	9
Кириш	14
Танбурда гаммалар ижро этишда миллий музыка асарларидан фойдаланиш	15
Куйларни нотага олишда фойдаланилган миллий безак белгилари	16
Бадий бўлимдаги айрим асарларга ва ижрога тааллуқли қисқа тавсиялар	18
Eshvoy kurd II	23
Dilbar	26
Karimqulbegi II	28
Sarbozcha	29
Muxammasi Ushshoq	30
Mashqi Chorgoh	34
Armug‘on	39
Ajam taronalari	42
Nasrullo I	46
Nasrullo II	54
Nasrullo V	56
Sarahbori Dugoh	59
Tarona I	64
Tarona II	65
Tarona III	67
Tarona IV	67
Tarona V	68
Tarona VI	72
Foydalanilgan adabiyotlar	74